Sirdaryo yuqori oqimida irmoqlarga ega emas, uning Pochcha ota, Kosonsoy, Govasoy, Chodaqsoy, Isfaramsoy, Shoximardonsoy, So'x, Isfara degan irmoqlarining suvi suvg'orishga sarf etilsa, Sirdaryoga etmay-yoq tamom bo'ladi. Sirdaryo Farg'ona vodiysidan oqib o'tgandan keyin unga o'ng tomondan Oxangaron, Chirchiq, Keles, Aris deb atalgan irmoqlari qo'shiladi, Qizilqum zonasida unga qo'shiluvchi Jangadaryo (300 km) Kuvondaryo (325 km) degan irmoqlari xozir quymaydi, ular kurib qolgan. Sirdaryo vodiysi bizning davrimizga kelib yirik- yirik paxtachilik va sholigarchilikka aylandi. Sirdaryo suvidan xalq xo'jaligida ratsional foydalanish maqsadida uning yuqori oqimida Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg'ona, Shimoliy va Janubiy Farg'ona, Andijon magistral kanallari, Qayroqqum suv omborlari, o'rta xamda quyi oqimlarida Kirov nomidagi Mirzacho'l kanali, A.Sorkosov nomidagi Mirzacho'l kanallari, Chordara suv ombori, Qizilqum suvg'orish sistemasi va boshshaxarr qurildi. Bu vash u kabi boshqa xarakatlar natijasida Sirdaryodan Orolga tushuvchi suvning hajmi 1961 yillardagi 3,2 km. kub 1975 yilgacha 0,6 km. kub qisqarsa, 1985 yillarda Orol dengiziga Sirdaryodan bir tomchida suv kelib qo'shilmagan. Agar shu yo'nalishda Amudaryo va Sirdaryo suvlari faqat suvg'ormali dexqonchilik uchun foydalanishga tortilsa, Orol dengizining suv bosgan maydoni 233 ming.km.kv ga qiskarib undagi suvning hajmi 2000 yillarga kelib 162 km.kv chamasida bo'lib dengiz suvining tuzliligi 50-60 protsentga etib katta tuzli sho'rxakka aylanishi mumkin. Shuning uchun Sirdaryo suvini Orol regionida paydo bo'lgan ekologik inqirozni o'z xoliga keltirish maqsadida foydalanish to'g'ri bo'ladi.

Irtish Shimoliy muz okeani xavzasiga quyuvchi O'rta Osiyoning yirik daryosi, uning uzunligi 4248 kilometr, shuning Qozog'iston territoriyasidan faqat 1700 kilometrga yaqini to'g'ri keladi. Irtish Xitoy territoriyasidan boshlanib, Qozog'iston territoriyasiga kelib Qora Irtish deb ataladi, Zaysan ko'li orqali Buxtarma suv omboriga kelib quyadi, shu erdan boshlab Oq Irtish yoki Irtish degan nom bilan Ob' daryosiga

borib quyadi. Irtish daryosi yuqori oqimida tog'liklar orqali oqib o'tib, Altaydagi Ko'l'ba daralarigacha xamda boshqada tog'li daralar oralig'ida tor qisnoqlar bilan Oskemen shaxriga tomon oqadi, shu oroliqda bir qancha irmoqlar kelib qo'shiladi, Bulardan eng kattasi Buxtarma (360 km) daryosi, keyingi yillarda Irtishda Buxtarma daryosi qo'shilgan joydan pastroqda balandligi 96 mertlik (platina) to'g'on o'rnatilib, Buxtarma suv elektrostantsiyasi kurildi. Shunga bog'liq daryo oqimining yuqorisida 600 kilometr ga cho'zilgan suv ombori paydo bo'ldi. Bu Buxtarma suv omborining suv yig'uvchi maydoni ancha katta. Irtish daryosida Oskemen shaxri yonida suv elektr stantsiyasining kurilishiga bog'liq ikkinchi to'g'on qurilib, kichik Irtish dengizi paydo bo'ldi. Oskemen bilan Semey shaxarlarining xududida Shulbi suv elektr stantsiyasi kurilib, Shulbi suv ombori paydo bo'ldi. Irtish Semey shaxri yonida tekislikka xos xarakterli daryoga o'xshaydi va burmalanib oqadi.

Irtish daryosining Shulbi shaxri yonidagi o'rtacha yillik suv sarfi 960 metr kub/sek barobar. Irtish daryosi Xitoy territoriyasigacha transportlik ahamiyatga ega. Unda yuk tashuvchi paraxodlar, teploxodlar va katerlar yilning ko'pchilik vaqtida katnashi mumkin. Irtish daryosi katta suv energetik maqsadlarga foydalaniladi. Unda ishlaydigan suv elektr stantsiyasi rudali Altayning sanoat markazlarini suv energiyasi bilan taminlaydi.

Keyingi yillarda Irtish daryosining suvi xalq xo'jaligida, ayniqsa janubiy Qozog'istonning yirik sanoat rayonlarini suv bilan taminlashga foydalanilmoqda. Shu maqsadda uzunligi 500 kilometrli Irtish-Qarag'anda kanali qurildi, uning eni 40 metr, chuqurligi 5-7 metr ga barobar. Sekundiga kanal orqali 75 kub metr suv oqib o'tish mumkinchiligiga ega. Xozir kanalning ikkinchi bo'limi boshlanib, u Jezqazgangacha etkaziladigan bo'ldi.

Ural daryosi Kaspiy dengizining xavzasiga quyuvchi g'arbiy Qozog'istondagi eng katta suv arteriyalari qatoriga kiradi. U Ural tog'laridan boshlanib shimoldan janubga tomon Qozog'istonni kesib o'tib, Kaspiy dengiziga quyadi, uzunligi 2428 kilometr, shuning 1100 kilometri Qozog'iston territoriyasi orqali oqib o'tadi. Ural daryosi Kaspiy dengizi bo'yidagi tekislikka chiqqandan keyin o'zining o'zanini kengaytirib, keng yoyilmalarni, mayda ko'llarni paydo etadi. Daryo kuyish joyida ikki tarmoqqa bo'linib, asosan qor suvidan oziqlanadi, eng suvli vaqti baxor oylariga to'g'ri keladi.

Uning o'rtacha yillik suv sarfi 400 metr kub sekund ga barobar Ural daryosida keyingi yillarda ko'p sonli suvg'orish sistemalari qurildi. Ularga Norin, Baqsay, Shag'an, Primorsk va boshshaxarr yotadi. Bundan boshqa Ural daryosidan, neft konlariga suv quvuri tortildi. Daryo kema katnovi va baliqchilik katta ahamiyatga ega.

Ili daryosi Balxash-Alako'l xavzasiga quyuvchi Qozog'istondagi eng katta daryolar qatoriga kiradi. U Sharqiy Tyan'-Shan' tog'laridan boshlanadigan Tekes va Kunges daryolarining qo'shilishidan paydo bo'ladi. Ili daryosining uzunligi 2439 kilometr, uning Qozog'iston territoriyasidagi uzunligi 815 km. Qozog'iston territoriyasidagi Ilining yirik irmoqlariga Talg'ar, Qoskeleng, Kurti, Shelek, Sharin, Osek daryolari hisoblanadi. Shundan Qoskeleng daryosining irmoqlari Qozog'istonning oldingi poytaxti Olma-ota shaxrini suv bilan taminlaydi. Ili daryosi o'rta va quyi oqimida tekislik orqali oqib, Qapchag'ay platinasi yonida daryo o'zani 200 metr ga torayadi, bundan keyin Iliga Kurti deb ataluvchi irmog'i qo'shilgan keyin uning o'zani 15 km ga kengaydi. Suvliligi jixatidan Ili daryosi Qozog'istondagi uchinchi

daryo hisoblanadi. Uning yillik o`rtacha suv sarfi Qapchag`ay yonida 472 metr kub sek. Daryo asosan qor va muz suvi bilan oziqlanadi. Ili daryosining vodiysida Toshli-loyli suv toshqinlari uchrab turadi. Bunga misol 1963 yili 17 avgustdagi selning kuchidan tabiiy to`g`oni buzilib ofat tug`dirganini atashga bo`ladi. Bunga qarshi 1966 yili Ili Olatovining Medeu Chotqolida to`g`on qurilib uning balandligi 100 metr eni 600 metrga etkazildi, bu 1973 yilgi sel ofatida Olma-Ota shaxrini saqlab qoldi. Ili daryosining suvi to`lig`i bilan deyarli dexqonchilik soxalarini suv bilan taminlashga, suv energetik maqsadlarga hamda madaniy o`simliklarni suv bilan taminlashda foydalanilmoqda.

Ili daryosida Qapchag`ay suv elektr stantsiyasi xamda Qapchag`ay suv ombori kurildi. Bu ishlab chiqarishning ko`pchilik soxalarini rivojlantirishga xamda Olma-Ota shaxrining xar tomonlama rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda.

**Murg`ob daryosi** O`rta Osiyoning janubidagi eng katta daryolardan hisoblanadi. U Afg`oniston territoriyasidagi 2600 metr balandlikdagi tog`lardan boshlanib Turkmanistonning janubidan Qoraqum cho`listoniga tomon 250 kilometr oraliqda og`ib o`tib Murg`ob oazisini suvlantirishga foydalaniladi. Murg`ob daryosining uzunligi 978 kilometr. Turkmaniston territoriyasida Murg`ob daryosiga Kashan xam Kushka deb ataluvchi ikki irmoq qo`shiladi. Murg`ob suvi kam daryolar qatoriga kiradi, uning Taxtakamar yo`nidagi yillik suv sarfi 50 metr kub sek tashkil qiladi va yiliga 100 ming gektarday territoriyani suvlantirishga mumkinchilik beradi. Daryo Iolotan shaxrigacha tik jarliklar paydo qilib oqsa, shu joydan boshlab tekislik territoriya orqali oqib o`tib bir necha tarmoqlarga bo`linadi. Murg`ob daryosi erigan qor va atmosfera yog`in-sochin suvlaridan oziqlanadi, faqat baxor oylarida toshib, yozga tomon daryolarining suv manbalari juda kamayadi. Shuning uchun daryoning suv manbalaridan unumli foydalanish (Ko`lxo`zbent, Iolotan, Xindikush, Tashkeprin, Sariyazin va xakazo) qurilgan. Bundan boshqa uzunligi 7 ming kilometrli suvg`orish kanallari ishga tushirilgan, bu Qoraqum kanali bilan birgalikda Murg`ob oazisidagi 400 ming gektarday ekin maydonlarini o`zlashtirishga yo`l ochmoqda.

Tejen daryosi Turkmaniston territoriyasidagi Murg`obdan keyingi eng katta daryo hisoblanadi. Uning uzunligi 1124 kilometr. Shuning 800 kilometri Afg`oniston va Eron territoriyasi orqali oqib o`tadi. Tejen daryosi Afg`oniston territoriyasidagi 3000 metr balandlikda joylashgan tog`lardan boshlanib, dastlab Saridjangal, o`rta oqimida Xurirud daryosi degan nom bilan ataladi. Turkmaniston territoriyasiga kelib Tejen degan nomga ega. Tejen daryosining suv to`plovchi maydoni 70 ming km.kv bo`lsa, Turkmaniston territoriyasiga juda kam suv olib keladi. Daryoning suv manbalari erigan qor suvi va atmosfera yog`in-sochin suvlaridan to`yinadi. Uning yillik suv sarfi 500 metr kub sekundga barobar, biroq shu suv oqimining 80 protsenti baxor oylariga to`g`ri kelib, ko`p sonli suv toshkinini paydo etadi. Shuning uchun Tejen daryosining suvinan xalk xo`jaligida ratsional foydalanish maqsadida 1950 yili Tejen suv ombori keyingi yillarda magistral suvg`orish kanallari ishga tushirildi. Bu Tejen daryosi basseynidagi 600 ming gektar ekin erlarini planli ravishda qishloq-xo`jaligida foydalanishga imkoniyat bera boshladi.

Zarafshon daryosi. Turkiston va Zarafshon tog` tizmalarining qo`shilgan joyidan Zarafshon muzligidan boshlanadi, u dastlab Mastcho`x daryosi degan nom bilan, keyinchalik Ayniy qishlog`i yonida Fandaryo bilan qo`shilgandan keyin Zarafshon

daryosi degan nomga ega bo'ladi. Daryoning tog'li bo'limi Tojikiston territoriyasidan oqib o'tib, tekislikka chiqqandan keyin Samarqand, Buxoro viloyatlarining territoriyasini suv bilan tamiylab Amudaryoga 16 kilometr qolganda Sandiqli qumlariga singip tamom bo'ladi. Shu oraliqda Zarafshon daryosi 781 kilometr uzunlikka ega va uning yillik o'rtacha suv sarfi Panjikent shaxri yonida 164 metr kub sek barobar. Daryo suvining yillik oqimining 55 protsenti iyul'-sentyabr' oylariga to'g'ri keladi, daryo suvining loyliligi bir kub metr suvida 880 grammgacha etadi.

Chirchiq daryosi Uzunligi jixatidan Zarafshon daryosidan keyin tursada suvliligi bo'yicha Sirdaryoning eng yirik irmoqlaridan hisoblanadi.

Daryo g'arbiy Tyan'-Shan' tog' tizmalaridan boshlanadigan Chotqol va Piskom daryolarining Chotqol bo'yida qo'shilgan joyidan boshlab Chirchiq degan nomga ega bo'ladi. Uning Sirdaryoga quygan joyigacha uzunligi 174 kilometrni tashkil qiladi, yillik o'rtacha suv sarfi Xo'jakent yonida 224 km kub sek barobar. Suvining o'rtacha loyligi bir kub metrga 275 grammni tashkil qiladi, yoki tog'li daryolarning ichidagi suvining tiniqliligi jixatidan eng yaxshilari hisoblanadi. Chirchiq daryosiga o'ng tomondan Ugom, chap tomondan Oqsoqota degan irmoqlari kelib qo'shiladi, baxorda dexqonchilikda ko'proq foydalan-ganlikdan Chirchiqqa etmay tamom bo'ladigan Kizilsuv, Aktoshsoy, Parkentsoy va boshqa irmoqlari bor. Chirchiq daryosi qor va muzlik suvlaridan oziqlanadi, shuning uchun eng suvli vaqti mart-iyun' oylariga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyoda ko'llar onsha ko'p emas. Ularning eng yiriklari Kaspiy ko'li, Orol ko'li, Issiq-ko'l, Balxash, Alako'l hisoblanadi.

Ko'llarning ko'pchiligi tog'larda joylashgan. Ko'llarning ichida eng kattasi Kaspiy ko'li kattaligi jixatidan dengiz deb xam ataladi. Dengizning maydoni 372000 km.kv.

Orol ko'li eng chuqur joyi 69 m (1961 yil) o'rtacha chuqurligi 16 m. Maydoni 66 ming kv.km. Orol dengizi cho'llar bilan o'ralgan, faqat ikkitagina daryo kelib quyadi Amudaryo va Sirdaryo. Orol dengizida 313 kichik orollar bo'lib ularning maydoni 2345 kv.km. edi. Xozirgi kunda Orol dengizining maydoni keskin qisqarib ketgan, eng chuqur joyi 50 m, maydoni 28 ming kv.km. Ko'pgina orollar bir-biri bilan qo'shib ketgan.

Balxash ko'li maydoni 17660 kv.km., uzunligi 605 km, eng keng joyi 74 km, tor joyi 8,5 km. o'rtacha chuqurligi 7 m. Ili daryosi kelib quyadi. Balxashda hayvonotlar du'n'yasi unchalik ko'p emas. Baliqchilik yaxshi rivojlangan, baliqning 12 turi yashaydi.

Issiq-ko'l. Maydoni 6200 kv.km., uzunligi 182 km. Chuqur joyi 702 metr Issiq-ko'l atrofida daryoning 80 ga yaqin soyi kelib quyiladi, Issiq ko'lden xech bir soy oqib chiqib ketmaydi. Eng yirik daryolari - Chu, Erg'alan daryolari. Issiq-ko'lda baliq ko'p 11 turi uchraydi. Issiq-ko'lni «Sovet Shveytsariyasi» deb xam ataladigan edi. Ko'lning atrofida yashil o'simliklar ko'p. Bu ko'lning bo'yida mashxur geograf Prjeval'skiyning qabri va nomi qo'yilgan shaxar bor. Issiq-ko'l atrofida Quysara, Oqsuv, Cho'lpanota, Jetihovuz kabi belgili kurort, sanatoriyalar bor.

Er osti suvlari Er osti suvlari juda zarur tabiiy boyliklarning biri. Er osti suvlari bilan xalq va xo'jalik talablarini taminlash mumkin. Er osti suvlari bilan ekinlarni xam taminlash mumkin. Qoraqum, Qizilqum, Moyinqum, Betpaqdala va Ustyurt cho'llarida, Markaziy Farg'ona, Mirzacho'l, Qarshi cho'li va boshqa cho'llarda er osti suvlaridan

foydalaniladi.

O`rta Osiyo territoriyasini gidrografik jixatidan 3 bo`limga ya`niy tog`li, tog` osti qiyaliklar va tekisliklarga bo`lishga bo`ladi. Har bir bo`limning o`ziga xos er osti suvlari va buloqlari bor. Tog`larga tushuvchi yog`inning ma`lum miqdori erga singadi va ulardan er osti suvlari paydo bo`ladi. Tekisliklardagi grunt suvlar bir necha tipga bo`linadi.

Er osti suvlari kristall jinslar orasida faqatgina uning yorilgan erlarida uchraydi va ular daryo (hajmidan) daryo va suvg`orish sistemalaridagi suvlar bilan toyinadi. Grunt suvlar tekisliklarda ko`pincha chuqurroqda bo`ladi, biroq Ayrim joylarda er betiga yaqin turib, ko`p erlarni botqoqlikka aylanishiga sabab bo`ladi.

O`rta Osiyoda ishga olinmagan cho`l va tekisliklar xali katta maydonni olib yotadi. Bu erlarda chorva mollari faqat yog`in va quduq suvlariga asoslanib boqilib kelgan. Qoraqum, Qizilqum, Balxash bo`yi, Betpaqdala va Ustyurt cho`llarida, Mirzacho`l, Qarshi cho`li va boshqa cho`llarda xozirdan quduq suvlaridan keng foydalaniladi. O`rta Osiyoda bir necha 10 metrdan 500 metrga etadigan quduqlar bor. Foydalanishga yaroqli yaxshi sifatli va katta zapasga ega bo`lgan er osti artezian suvlari To`rtko`l, Shomanay, Beruniy, Xalqobod territoriyalarida topilgan.

Er osti suvlarining katta zaxiralari, ayniqsa Qozog`iston territoriyasida faqat Mo`yinqum va Sariatqa qum cho`llarida chuchuk grunt suvlari bor. Toshkent Mirzacho`l tog` oldi tekisligida mezo-kaynozoy yotqiziqlari orasida turli chuqurlikda katta artezian xavzasi bor.

O`rta Osiyoda har xil mineral va issiq er osti suvlari bor. So`ngi yillarda O`zbekistonda 50 dan ortiq davolovchi mineral buloqlar yaxshi o`rganilib chiqildi. Farg`ona vodiysidagi Chimshn, Janubiy Olamushuk, Chortoq, Surxondaryo viloyatidagi Jayrontepa va boshqa shifobaxsh maskanlar mana shularning xisobidan ishlaydi.

Issiq mineral suvlar Farg`ona vodiysida juda ko`p erlarda uchraydi. Qirg`izistonda issiq mineral suvlar qadim zamonlardan buyon belgili va odamlar turli kasalliklarni davolab kelgan.

Qirg`izistonda tog`liklar etaklarida Issiq-ota, Shansi, Terskay, Alatov yonbag`irlarida Jetiko`z, Oltin Arason, Farg`ona tizmalarida Jalolobod va boshqa erlardagi mineral suvlar juda mashxur. Issiq mineral suvlar Tojikiston va Turkmanistonda xam ko`p va bular orasida radioaktiv suvlar xam uchrashadi. Tojikistonda Obigari va Xuja-obigari issiq mineral suvlari bor. Shunday qilib, O`rta Osiyoda har xil er osti suvlarining har qiyli zahiralari aniqlangan. O`rta Osiyo territoriyasida xali suv hovuzlari ko`p va ularni xalq xo`jaligining har xil sohalarida foydalanish kechiktirib bo`lmaydigan vazifa xisoblanadi.

Xulosa qilganda O`rta Osiyoda maxalliy ahamiyati ega, suvg`orish va boshqa xalq xojaligi maqsadlarda keng foydalaniladigan Qashqadaryo, Oxangaron, Atrek, Chu, Eman, Ayako`z, Lepsi, Torg`ay va boshqa ko`plagan daryolar bor. Ular qishloq xo`jaligi sohalarini suv bilan ta`minlashga, shuningdek energetik maqsadlarda keng foydalaniladi. O`rta Osiyo MDH davlatlarining suv energetik resurslarining 15,7 protsentini tashkil qilib shundan O`zbekiston daryolarining suv energetik quvvati 12 mln kVt dan ortig`iroq, yoki yiliga faqat suv energetik resurslarini foydalanish natijasida qo`shimcha 107 mlrd kVt soat elektr energiyasini ishlab chiqarishga bo`ladi degan so`z.

Daryolarning suv resurslarini suvg`ormali dexqonchilikda unumli foydalanish maqsadida suv omborlari, magistral yirik kanallar kurildi. Masalan vegetatsion davrda suvdan unumli foydalanish maqsadida sig`imi 17 mlrd. metr kub Toktag`ul suv ombori, sig`imi 7,8 mlrd metr kub Tuyemo`yin suv ombori, sig`imi 5,7 mlrd metr kub Chordara suv ombori, sig`imi 4,2 mlrd metr kub, Chorvoq suv ombori, sig`imi 1,7 mlrd metr kub Andijon suv omborlari xamda uzunligi 1400 kilometrlik Qoraqum kanali, 500 kilometrlik Irtish-Qarag`anda kanali, 170 kilometrlik Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg`ona kanali, uzunligi 197 kilometrlik Amu-Buxoro kanali xamda boshqa kanallar ishga tushirildi. Eng katta ko`llari qatoriga Kaspiy, Orol, Balxash, Issikko`l, Zaysan, Olako`l, Sariqamish xamda boshshaxarr hisoblanadi. Kaspiy xamda Orol egallab yotgan maydoni katta bo`lganlikdan dengiz deb xam ataladi. Kaspiy dengizining maydoni 372 ming km.kv ga teng. Bu erlar baliqchilikda transport soxalarida katta axamiyatga ega. Lekin manna shu ko`llardan Orol ko`li eng qiyin ekologik krizis sharoitiga tushib qolgan, keyingi yillarda Amudaryo, Sirdaryo basseynida suvg`orib ekiladigan dexqonchilikni rivojlantirishga bog`liq Orolga tushuvchi daryo suvi keskin qisqarib ketdi. Agar 1960 yillarda Amudaryo va Sirdaryodan Orolga 58,9 km kub suv quyib turgan bo`lsa, xo`zirgi vaqtda bu ko`rsatgich 9 km kub. dan ortmaydi. Natijada keyingi 30 yil ichida Orol suvi 15 metrgacha pasayib ketdi, uning qirg`oqlari 50-80 km, ayrim joylarida 100-120 km gacha chekindi, suvining mineralizatsiyasi 30-40 promilldan ortib ketdi, Bu Orol xududidagi ekologik muvozanatning pasayishiga olib kelmoqda, shuning uchun Orol xavzasiga qo`shimcha suv olib kelish xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

.

(4-soat)

REJA:

- 1.O`rta Osiyo axolisining o`shish dinamikasi.**
- 2.Axolining respublikalar bo`yicha joylashishi va zichligi.**
- 3.Respublikalar bo`yicha axolining yosh ko`rsatgichlari va mehnat resurslari.**
- 4.O`rta Osiyoda urbanizatsiya protsesi va eng yirik shaharlari.**

O`rta Osiyo territoriyasi shu jumladan Amudaryo va Sirdaryo xavzalari, du`nyo yuzidagi boshqa buyuk daryo xavzalari singari erta davrlardan boshlab-oq xalqlar qo`nim topgan va madaniyati rivojlangan xududlar qatoriga kiradi. Lekin o`tmishda O`rta Osiyo davlatlarining axolisi ho`zirgi davrdagidek zich joylashmagan.

1913 yil podsho Rossiyasi zamonidagi axoli xisob sanog`iga nazar tashlasak O`rta Osiyoda 12,6 mln. dan ortiq odam yashagan. Shuning 5,5 mln. dan ortig`i Qozog`iston, 4,3 mln. dan ortig`i O`zbekiston, , 1 mln. dan ortig`i Turkmaniston, yana 1 mln. dan ortig`i Tojikiston, 860 mingi Qirg`iziston territoriyasida yashagan. O`rta Osiyoning cho`listonli bo`limi bo`lgan O`zbekiston bilan Turkmanistonda 1913 yil 5,3 mln. dan ortiq axoli yashagan. Ikkinchi jaxon urushi oldida, yoki 1940-yilda O`rta Osiyo axolisi 5 mln. ga ko`payib 17 mln 54 ming kishiga etdi, shuning 6,6 mln kishi O`zbekiston, 6,1 mln kishi Qozog`istonga qolgani 3 respublikaga tegishli bo`ldi. Ikkinchi jaxon urushidan keyin yurgizilgan axoli xisob-kitobi (1959j) bo`yicha O`rta Osiyo axolisi 23 mln kishiga etdi. Aniqlangan ma`lumotlar bo`yicha 1940-59 yillar oralig`ida O`rta Osiyo axolisi 6 mln kishiga ko`paydi. Axolisining soni bo`yicha O`zbekiston Qozog`iston respublikasidan o`zib ketdi.

O`rta Osiyo axolisi tabiiy o`shishi o`zining ayrim xususiyatlariga ko`ra MDH davlatlaridan ayrilib turadi.Axoli sonining kopayishi tabiiy o`simning natijasiga bog`liq.

Bu davrda O`rta Osiyo qulayli tabiiy iqtisodiy sharoitlari, shu jumladan xalqning moddiy va madaniy tomondan etukligi xamda axoliga maishiy xizmat ko`rsatish sohalariniing yaxshilanishi axoli sonining tez suratlarda o`shishiga ta`sir ko`rsatdi. Buni 1970-yili 17-yanvardagi axoli xisob-kitobi natijalari bo`yicha xam kuzatish mumkin. Shu yili axolii soni O`rta Osiyoda 40 mln 164 ming kishiga etdi. Axolii sonining yuqori sur`atlarda o`shishi ayniqsa O`zbekistonda sezilarli darajada bo`ldi. Agarda 1970-yili axolii soni O`zbekistonda 11,8 mln bo`lsa, 1979-yilga kelib 15,4 mln kishiga ko`paydi. Masalan: shu yillar ichida Qozog`istonda 1970-yili 13 mln, 1979-yili 14,7 mln ga, Tojikiston 3,8 mln., Qirg`iziston 3,5 mln., Turkmaniston 2,8 mln kishiga etdi. O`rta Osiyo XIX asrda Rossiya imperiyasining eng ichkarisida joylashgan qishloq xo`jalik o`lkasi xisoblansa, ho`zirgi kunda sanoati, transport-iqtisodiy aloshaxarri o`sdi, qishloq xo`jalik sohasida katta o`zgarishlar yuz berdi. O`zbekistonda Mirzacho`l zonasi, Turkmanistonda Qoraqum kanali xafzasi, Tojikistonda Dal`garzin cho`linde, Qirg`izistonda Chu vodiysi, Qozog`istonning shimoliy territoriyalari o`zlashtirilib yirik paxtachilik, g`allachilikka ixtisoslashtirildi. Bu ilojlar O`rta Osiyo davlatlari xalqining

turmush tarzining ko'tarilishiga yo'l ochdi. Keyingi ma'lumotlarga murojat qilsak 1991-yili O'rta Osiyo axolisi 50,7 mln kishiga etdi. Shundan 20,7 mln kishi O'zbekiston, 16,7 mln kishi Qozog'iston, 5,3 mln kishi Tojikiston, 4,4 mln kishi Qirg'iziston, 3,7 mln kishi Turkmaniston respublikalariga to'g'ri keladi.

2000 yilgi statistik ma'lumotlar bo'yicha O'rta Osiyoda 57.1 mln. ortiq axoli yashaydi. Shuning O'zbekiston respublikasida 24,7 mln. Qozog'iston respublikasida 16,7 mln, Tojikiston respublika-sinda 6,4 mln, Qirg'izistan respublikasida 4,6 mln, Turkmaniston respublikasida 4,5 mln axoli yashaydi.

Xozirgi statistik ma'lumotlar bo'yicha O'rta Osiyoda 59.2 mln.dan ortiq axoli yashaydi. Shundan O'zbekiston respublikasida 26 mln.dan ortiq, Qozog'iston respublikasida 16,8 mln ortiq, Tojikiston respublikasida 6,8 mln ortiq Qirg'izistan respublikasida 4,9 mln ortiq, Turkmaniston respublikasida 4,8 mln ortiq axoli yashaydi. Bunday yuqori o'sish bevosita tabiiy o'sishga bog'liq bo'ladi. O'rta Osiyoda xar 1000 kishiga tabiiy o'sim miqdori 24,6 kishidan to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich (1999j) respublikalar bo'yicha O'zbekistonda 26,6 kishi, Turkmanistonda 26,9 kishi, Qirg'iziston 21,4 kishi, Tojikiston 25,6 kishi, Qozog'istonda 11,8 kishini tashkil etadi. Bu tabiiy o'sim MDH davlatlari bilan solishtirganda 2-3 marta deyarli yuqori. Ma'selen MDH davlatlari tarkibiga kiruvchi respublikalarda 1000 kishig'a tabiiy o'sim 6,3 kishini tashkil qilsa, Ukrainada 0,6 kishi, Rossiyada 2,2 kishini tashkil etadi.

O'rta Osiyo respublikalarining sanoatlashishi, maxalliy axolining zavod-fabrikalarga jalb qilinishi, qishloq xo'jaligida irrigatsiya qurilishlari, yangi erlarning o'zlashtirilishi, dehqonchilikning yanada rivojlanishiga olib keldi. Axoli yashaydigan yangi punktlar, shaxarlar tiklandi. Masalan Chirchiq, Yangiyul, Ohangaron, Bekobod, Olmaliq, Nebitdog', Qizilqiya, Toshko'mir, Neftobod, Sulukta, Yangier kabi shaxarlar bularga misol bula oladi.

Shaxarlarning ko'payishi bilan axoli soni xam kam-kamdan ortib bormoqda. 1913-yili O'rta Osiyoda shaxar axolisi 11% bo'lsa, 1970-yili 38%, 1990-yili 42,5% ni tashkil qildi. Shundan Qozog'istonda 54,4%, Turkmanistonda 45,4%, O'zbekistonda 40,3%, Qirg'izistonda 38%, Tojikistonda 32% shaxar axolisini tashkil qildi. Shunday qilib ho'zirgi davrda shaxarlarda 27 mln kishi, qishloqlarda 32,2 mln kishini tashkil qiladi. 2005-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra O'rta Osiyoda shaxar axolisining ulushi 46% ni tashkil qiladi. Shundan Qozog'istonda 60%, Turkmanistonda 45%, O'zbekistonda 41%, Qirg'izistonda 39%, Tojikistonda 32% ni tashkil etadi.

Axolining zichligi O'rta Osiyo territoriyasi bo'yicha bir xil emas, o'rtacha xisob bilan 1 kv.km territoriyaga 14,8 kishidan to'g'ri keladigan bo'lsa, bu ko'rsatkich O'zbekistonda 58,1 kishi, Tojikistonda 46,8 kishi, Qirg'izistonda 24,7 kishi, Turkmanistonda 9,8 kishi, Qozog'istonda 6,2 kishini tashkil etadi.

Farg'ona vodiysida shu jumladan Andijonda 1 kv.km. territoriyaga 455 kishi to'g'ri kelse, Qoraqum cho'listoni, Qizilqum cho'listoni va Ustyurt platolarida 10 kv.km. territoriyaga 1-3 kishidan to'g'ri keladi. 1940-yillarda O'rta Osiyoning 4 Respublikasida, xalq xo'jaligida ishlovchilarning soni 1,2 mln kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yilga kelib, bu 4 respublikada 9,9 mln kishi xalq xo'jalik sohalarida band bo'ldi. O'rta Osiyoning 5 respublikasida ho'zirgi kunda xalq xo'jaligi sohalarida ishlovchilarning soni 15 mln.dan ortdi, shundan O'zbekistonda 5,2 mln, Qozog'istonda 6,5 mln, qolgan 3 respublikada 3,4 mln kishi xalq xo'jaligida ish bilan band.

5	ORAYLIQ AZIYANIN ADMINSTRATSIYALIK BOLINIWI HAM ORAYLIQ AZIYA MA`MLEKETLERINE EKONOM- GEOGRAFIYALIQ SIPATLAMA
---	--

(4-soat)

Reja:

- 1.Orayliq Aziya ellerinin` geografiyalik jaylasqan orninin`**
- 2.Orayliq Aziya elleri xojalig`inin` xarakterli o`zgesheliklari**
- 3.Regionnin` basli sanaat ha`m awil-xojalig`i tarawlarina sipatlama**

Jer maydani - 3994,4 min` km²

Xalqi - 56,2 mln.adam

Orayliq Aziya ma`mleketlerien Qazaqstan, O`zbekstan, Tu`rkmenstan, Ta`jikstan ha`m Qirg`izistan respublikalari kiredi. Olar ma`mleketler araliq xaliq xojalig`i kompleksin jaratadi. Bul respublikalardi tek geografiyalik jaylasqan orni g`ana emes, al ta`biyiy sharayatinin` uqsaslig`i, tariyxiy ha`m ekonomikalik rawajlaniwinin` uliwmalig`i, sonin` menen birge qa`niygelesken xojaliq tarawlarinin` da birdeyligi biriktirip turadi. Orayliq Aziya ma`mleketleri ushin demografiyalik, sotsialliq ha`m ekonomikalik mashqalalari, irrigatsiya tarawlarinin` rawajlaniwinin` uliwma uqsaslig`i menen bir qatarda, olar bir-birinen ha`r bir respublikanin` xojaliq tarawlarinin` spetsifikalik rawajlaniwi jag`inan ajiralip turadi.

Regionnin` xojaliq kompleksinde sanaat jetekshi rol` oynaydi. Paxtashiliq bazasinda o`z aldina agrar industrial kompleks ju`zege kelgen. Orayliq Aziyadag`i mexanizatsiyalasqan iri paxta tazalaw kra`xanalarinin` 50 protsentke shamalasi O`zbekstanda jaylasqan. Paxta mayin o`ndiriw zavodlari paxtashiliq jaqsi rawajlang`an u`lken oazislerdegi (Ferg`ana, Zarafshan alabi h.t.b.) qalalarda qurilg`an.

Paxta gezlemelerin islep shig`ariwshi ka`rxanalar Orayliq Aziyanin` Qazaqstanna basqa barliq respublika paytaxtlarinda bar. Regionnin` toqimashiliq sanaatinda jipek gezlemelerdi o`ndiriw a`hmiyetli orindi tutadi. Pilleni qayta islew ha`m jipek gezleme toqiw fabrikalari Ferg`ana, Marg`ulan, Samarqand, Osh, Dushanbe, Ashxabad ha`m Charjawda jaylasqan.

Regionda ku`shli otin-energetikalik baza du`zilgen. Neft` sanaati tiykarinan Qazaqstan, Tu`rkmenstan ha`m O`zbekstanda rawajlanbaqta. Tu`rkmenstan ha`m O`zbekstanda gaz sanaati joqari da`rejege ko`terildi. Bul eller "MDA ma`mleketleri arasinda Rossiyadan keyingi ekinshi, u`shinshi orinlardi iyeleydi. Ta`biyiy gaz truboprovod arqali Rossiyag`a, Qirg`izistan, Ukraina, Zakavkaz`ya ellerine eksportqa shig`ariladi. Orayliq Aziya ma`mleketleri de otin-energetikalik resurslar arasinda gaz birinshi orindi iyeleydi.

Regionda iri jilliliq ha`m gidroelektrostantsiyalar qurilg`an. Elektr energiyasin jan basina o`ndiriw boyinsha Orayliq Aziya ma`mleketleri du`n`yanin` ayirim aytarliqtay rawajlang`an ma`mleketlerindegi (Iran, Tu`rkiya h.t.b.) ko`rsetkishlerden de bir qansha aldinda turadi.

Region xojalig`inin` ja`ne bir qa`nigelesken tarawi ren`li metallurgiya mis, svinets, tsink, alyuminiy, rtut` ha`m sur`ma o`ndirisi bolip tabiladi. Ximiya sanaati awil xojalig`in mineral to`gin ha`m o`simliklerdi ha`r qiyli ziyankeslerden ximiyaliq qorg`aw

ushin da`riler jetistirip beredi.

Orayliq Aziya ma`mleketleri mashina sog`iw sanaati rawajlang`an regiong`a aylandi. Onin` jetekshi tarawlari-awil xojalig`i texnikalarin, melirotsiya mashinalarin, toqimashiliq stanoklarin ha`m ha`r qiyli a`spab u`skenelerin islep shig`ariw bolip tabiladi. Sonday-aq regionda ha`zirgi zaman avtomabil` ha`m elektrotexnika sanaati da qa`liplespekte.

Awil xojalig`i suwg`armali ha`m qarizg`ar diyxanshiliqtan ibarat. Basli texnikaliq egini-paxta. Paxtanin` ha`r bir hektari ushin 8-min` m<sup>3</sup> tan artiq suw talap etiledi. sog`an qaramastan oazislerdegi suwg`armali jerlerdin` yarimina shamalasi paxtashiliq penen ba`nt. Ferg`ana alabi, Mirza sho`l, Gissar ha`m Vax alabi, to`mengi A`miwda`r`ya, Murg`ab ha`m Tejen oazisleri paxtashiliqqa qa`nigelesken rayonlar bolip esaplanadi. Orayliq Aziya elleri "MDA ellerinde jetilistiriletug`in paxtanin` 90%ten aslamin jetistirip beredi.

Paxta egininen tisqari Orayliq Aziya elleri aymaqlarinda jon`ishqa, sali, ha`r qiyli ovosh-paliz, miywe o`nimleri jetistiriledi. Pilleshilik tarawida aytarliqtay jaqsi rawajalang`an. Tawlardin` eteklerinde diyqanshiliq suwg`arilmay (qarizg`ar diyqanshiliq) alip bariladi. Bul aymaqlarda g`a`lleshilik (biyday, arpa h.t.b.) egiledi, ju`zimgershilik ha`m bag`shiliq jaqsi rawjlang`an.

Orayliq Aziya aymaqinin` ko`pshilik bo`limi sho`l ha`m yarim sho`llerden ibarat, sonliqtan da bul orinlarda qoy, a`sirese qarako`l qoylari ha`m tu`yeler ko`plep bag`iladi.

Agrosanaat kompleksinin` quramina awil-xojalig`i o`nimlerin qayta islew sanaati da (paxta tazalaw, may shig`ariw, jip iyiriw h.t.b.) kiredi

Orayliq Aziya xalqinin` ko`pshilik bo`limi awil xalqina tuwra keledi. Tek Qazaqstanda g`ana qala xalqi awil xalqinan basimiraq (55%) bolip keledi. Xaliqtin` ortasha tig`izlig`i ha`r bir km² ge 14 adamnan tuwra keledi. Xaliqtin` en` tig`iz jaylasqan orinlari taw ha`m da`r`ya alaplari, suw menen jaqsi ta`miyinlengen oazisler bolip esaplanadi (Ferg`ana, Zarafshan, Vaxsh, Chu, Surxan-Sherabad, Shirshiq-Axangaran alaplariYu Xorezm, Mari oazisleri h.t.b.). Bunday aymaqlarda xaliqtin` tig`izlig`i 1 km<sup>2</sup> ge 100 ha`m onnan aslam adamdi quraydi, sho`l ha`m biyik tawli zonada xaliq ju`da` siyrek jasadidi, al ayirim qolaysiz rayonlarda derlik turaqli xaliqtin` o`zi joq.

Ta`kirarlaw ushin sorawlar:

- 1.Orayliq Aziya ellerinin` geografiyalik jaylasqan orninin` o`zgeshelikleri nelerden ibarat
- 2.Orayliq Aziya elleri xojalig`inin` xarakterli o`zgeshelikleri nelerde ko`rined3.
- 3.Regionnin` basli sanaat ha`m awil-xojalig`i tarawlarina sipatlama berin

(4-soat)

Reja:

1.Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.**2.Relefi va iqlimi.****3.Xo'jaligi va sanoati.****4.Iqtisodiy-geografik rayonlari.**Er maydoni - 2717,3 ming km²

Aholisi - 16,7 mln odam

Poytaxti - Ostona

Geografik joylashgan o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari. Qo'zog'iston er maydoni bo'yisha Markaziy Osiyo respublikalari ishida birinshi o'rinni egallaydi. Respublika Kaspiy dengizidan Oltoy tog'larigasha 3 ming km, shimoldan Janubga Rossiya shegarasidan O'zbekistongasha 1,8 ming km dan ortiq oraliqqa yoyilgan. Qo'zog'iston Sharqida Xitoy bilan shegaralangan.

Rel'efi asosan tekislikdan iborat. Xitoy, Qirg'iziston, g'arbiy Sibirning janubiy - sharq tarafidan o'tgan shegarasidagina tog'lar orqali shegaralangan.

Qo'zog'istonning Iqlimi keskin kontinentalli va quruq. Iliq yog'in - soshin miqdori 400 mm dan (shimolida), 200 mm (janubida) oralig'ida. Tog'li bo'limida yog'in - soshin 500-600 mm gacha yog'adi. Respublika tabiati qarama - qarshilikli. Uning shimolida qishning sovuq ayozi va qori yotgan vaqtda, janubida mevali daraxtlari gullab yotadi.

Respublika shimolida qora va qo'ng'ir tuproqli dala joylashgan bo'lib, ular dehqonshilikda kengdan foydalaniladi. Janubida sur qo'ng'ir tuproq joylashib undan sug'orish natijasida ko'plab qishloq - xo'jalik sohasini rivojlantirishda foydalansa bo'ladi. Shu sababli respublikaning shimolida qor, nam, janubida sug'ormali dehqonshilik yo'lga qo'yilgan. Qo'zog'iston territoriyasining ko'pchiligini sho'listonlik, yarmidan ortig'ini yarim sho'llar egallaydi.

Respublika suv resurslariga unsha boy emas. Yirik daryolari Irtish, Ural, Sirdaryo, Ili daryolari. Faqat Irtish daryosi transportlik ahamiyatga ega. Markaziy va Shimoliy-Sharqiy Qo'zog'istonning aholisini va sanoat sohasini shushuk suv bilan taminlash maqsadida Irtish Karag'anda kanali qurilgan.

Qo'zog'iston har xil foydali qazilmalarning yirik zahiralariga ega. Ayniqsa, rangli va qora metall rudasi, fosforit zahiralar juda ko'p. Shuningdek, ko'mir, neft, tabiiy gaz va mineral xom ashyo resurslarining yotqiziqlari ham aytarlisha darajada ushraydi.

Asosiy mis konlari - Jezqazg'an, Bo'zsha-ko'l, Sayaq konlari. Shuningdek boksit, nikel, volfram, molibden rudalari, oltin, xrom ushraydi.

Temir rudasining aniqlangan zahirasi Kustanay viloyatida joylashgan. Fosforit Qaratog' tog'larida topilgan. Karag'anda va Ekibastuz basseyinlarida toshko'mirning yirik zahirasi, qo'ng'ir ko'mir - Torag'ay basseyinida, neft - Emba daryosi rayonida, Mang'ishlaq yarim orolida aniqlangan.

Aqto'be viloyatining Qarashig'anaq konida tabiiy gazning yirik koni topiladi.

Aholisi. Qozog'iston Respublikasi ko'p millatli davlat. Bu respublikada qozoqlar 46 O', orislar 34,8 O', ukrain 4,9 O', nemislar 3 O', tatar 2 O', o'zbeklar 2,5 O',

belorus, koreys, uyg'ur v.b. millat vakillari yashaydi. Axolisining o'rtasha zishligi 1 km² ga 6,2 odam bo'lib, u jami hududi bo'yicha bir tekis joylashmagan. Tyan'-Shan tog' qirlari, Jung'ar Olatog'i vodiylari va shimoliy dala rayonlarida xalq biroz tig'iz joylashgan.

Shahar aholisi jami aholining tashkil etadi. Respublikada 21 shahar 100 mingdan ortiq aholiga ega. Eng yirik shaharlari - Qarag'anda (600 dan ortiq odam), Shimkent (400 ming odamga yaqin), Pavlodar (300 mingdan ortiq), Ust'-Kamenogorsk (300 ming odamdan ortiq).

Xo'jaligi. Qo'zog'istonning xo'jaligining tarkibida rangli va qora metallurgiya, issiqlik energetika va ximiya sanoati, mashina ishlab shiqarish sohalari etakshi o'rinni egallaydi. Engil va oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi rivojlantirilgan.

Respublika xom ashyo bazasida rangli metallurgiya etakshi rol o'ynaydi. Rangli metallurgiyani ishlab shiqaruvshi va qayta ishlovshi asosiy rayonlar Markaziy va Janubiy Qo'zog'iston, Rudali Oltoy bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, metallurgiya Aqto'be va Pavlodar viloyatida ham rivojlangan.

Markaziy Qo'zog'istonda, Jezqazg'an oblastida mis ishlab shiqarish sanoati yaxshi rivojlangan. Kushli Jezqazg'an va Balxash kombinatlar, Karsakpay mis eritish zavodi ishlab turibdi. Mis rudasi bu erde kompleksli. Ular misdan tashqari, molibden, rux, kumush, siyrak ushraydigan va tarqoq elementlarni ham o'z ishiga oladi.

Janubiy Qo'zog'istonda, Shimkent viloyatida polimetall rudalari konlari foydalanilmoqda. Ashshisay va Tekteli tog' - kon kombinati ishlab turibdi. Ularning xom ashyosi Shimkent shahridagi rux zavodida qayta ishlanmoqda. Rangli metall ishlab shiqarish korxonalariga elektroenergiyasini Irtish daryosiga qurilgan GES lardan, shuningdek Ermakov GRES idan etkazib beriladi.

Pavlodar shahrida glino'zem zavodi ishlab, u Arkaliq konidan qazib olinadigan boksitni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Bu erdan glino'zem Sibir va Tojikistonning alyuminiy zavodlariga shiqariladi. Hozirgi vaqtda Pavlodarda alyuminiy ishlab shiqarish zavodi qurilmoqda.

Qora metallurgiya sanoati bir nesha yirik korxonalar bilan ko'zga tashlanadi. 60-70 yillari Temirtog' shahrida Karag'anda metallurgiya kombinati ishga qo'shildi. U texnologik yonilg'i sifatida Karag'anda basseyning kokslanuvchi ko'miridan foydalanadi, xom ashyo Sakalov-Sarboy va Lisakov tog'-kon boyitish kombinatlaridan (Kustanay oblasti) olib kelinadi. Shuningdek Atoshu temir rudasida foydalaniladi. Kustanay viloyatidagi tog'-kon boyitish kombinatidan boyitilgan temir rudasi faqat Temirtog'ga emas, Janubiy Uralga ham (Rossiya) etkazib beriladi.

O'tin yonilg'i sanoati ko'mir, neft va gaz qazib olinishi bilan yuzaga kelgan. Qo'zog'iston ko'mir ishlab shiqarish bo'yisha MDH da Rossiya va Ukraina davlatlaridan keyin ushinshi o'rinni egallaydi. Kokslanuvchi ko'mir Karag'anda basseynidan olinib, o'z talabidan boshqa Rossiya Federatsiyasiga ham eksport qilinadi.

Ekibastuz basseynidan olinadigan tosh ko'mir katta ahamiyatga ega. U erde ko'mir oshiq usulda qazib olinib o'zining narxi arzon. Uning ko'miri arzon energiya olish ushun GRES yonilg'ilari bo'lib hisoblanadi.

Qarashig'anaq gazkondensat konining oshilishi va ishga tushishi kelajakda gaz sanoatining rivojlanishiga katta mumkinshiliklar yaratib beradi. Bundan tashqari neft

ishlab shiqarish paytida ushraydigan gazdan ham foydalaniladi. Rossiya va Ozarbayjon kabi Qo`zog`iston yirik neft` ishlab shiqaruvshi davlat hisoblanadi.

Heft` Mang`ishlaq va Buzachi yarimorollaridagi Emba basseynida qazib olinadi. Keyingi yillarda Kaspiy bo`yi pasttekisligida (Atiraw oblasti) yangi neft` konlari o`zlashtirilmoqda.

Aytarilisha zahiraga va sifatga ega neft` koni ajralib turadi. Bu konning mahsuloti Rossiya va shet el firmalari yordamida qayta ishlanmoqda. Qo`zog`iston neftini Hovorossiysk porti orqali Evropaga eksport qilish ko`zda tutilmoqda. Qo`zog`istonning Sharqiy va Janubiy rayonlarini neft` mahsulotlari bilan taminlash maqsatida Pavlodar va Shimkent shaharlarida neftni qayta ishlovshi zavodlar qurilgan. Ular neftoprovod orqali olib kelinadigan Sibir` neftidan foydalanmoqda.

Eletroenergetika sanoati ni asosan yirik sanoat markazlarida qurilgan issiqlik elektrostantsiyalari tashkil etadi. Shuningdek, Irtish daryosiga qurilgan Ust`-Kamenogorsk va Buxtarma GES lari elektr energiyasidan ham foydalanadi. Ili daryosida Kapchagay GESi qurilgan. Kaspiy dengizi suvini chuchuklantirishda qo`llanilmoqda.

Ximiya sanoati korxonalari har xil ximiyaviy mahsulotlarni ishlab shiqarmoqda. Ximiya sanoatining xom ashyosi qora va rangli metallurgiya, neft` va gazni qayta ishlash sanoatining shiqindilari bo`lib hisoblanadi. Respublikaning janubida Qaratovda fosforit qazib olinib, fosfat o`g`iti ishlab shiqarilmoqda (Jambil shahrida). Organik sintez natijasida plastmassa, suniy kaushuk (Temir tog` shahri), polietilen (Atiraw shahri) v.b. mahsulotlar tayyorlamoqda. Farmatsevtika sanoati rivojlantirilgan.

Mashina ishlab shiqarish sanoati xalq xo`jaligi talablari bilan bog`liq bo`lib, mahalliy qora va rangli metallardan foydalanadi. Karag`anda va Ust`-Kamenogorskte tog`-kon sanoati mashinalarini ishlab shiqaruvchi zavod, Pavlodarda traktor zavodi ishlab turibdi. Ostona va Petropavlovsk shaharlarida qishloq xo`jaligi mashinalarini ishlab shiqaruvchi yirik korxonalar bor.

Qurilish sanoati. Qurilish materiallarini ishlab shiqaruvchi korxonalar barsha rayonlarida joylashgan. Karag`anda, Shimkent, Simipalatinsk, Ust`-Kamenogorskte yirik tsement zavodi qurilgan.

Oziq-ovqat sanoati katta ahamiyatga ega. Simipalatinskтеgi go`sht kombinati MDH da go`sht konservalarini ishlab shiqarish bo`yisha etakshi o`rinda turadi. Olma-ota va Jambil viloyatidada qant sanoati korxonalari joylashgan.

**Qishloq xo`jaligi**. Qozog`istonning tabiiy sharoiti uning xo`jalik sohasining shimol va janubida o`zgashaliklarni keltirib shiqaradi. Shimol tomonning tuproq iqlim sharoitlari dehqonshilik ushuncha qulaylik yaratadi. Bu asosiy don etishtiruvshi rayon. Kuzgi bug`doy ekin maydonlari ustunlik qiladi.

Janubida sug`orib ekiladigan erlarida sholi, texnik ekinlardan paxta, qant qamishi etishtiriladi. Issiqlikni va namlikni sevuvshi sholishilik Sirdaryoning quyi bo`limida, paxta Shimkent viloyatida, qant qamishi Olma-Ota va Jambil viloyatlarida ekiladi. Shuningdek respublikaning janubida bog`shilik va uzumshilik ham rivojlangan.

Shorvachilik qishloq xo`jaligining etakshi sohasi. Shorvachilikda yirik qoramollarning bosh soni (50protsent) aytarilisha yuqori. Shu bilan birga yilqi, sho`shqa boqish, qush o`stirish va tuya boqish yaxshi rivojlangan.

Transporti. Qozog`istonda barcha transport turlari: temiryo`l, avtomobil`, daryo va dengiz, truboprovod va havo transporti rivojlangan. Yuk tashishda asosiy o`rinni temir yo`l transporti egallaydi. Respublika territoriyasini to`rt meridianal temir yo`l magistrali: Turksib, Tranqozog`iston (Petrodavlosk-Karag`anda- Shu), Orenburg-Toshkent, Qo`ng`irot-Makat-Astraxan` magistrallari kesip o`tadi. Yuk tashishda temir yo`l liniyalari bilan bir qatorda avtomobil` transporti ham aytarlisa o`rin egallaydi. Oldingi poytaxti Olma-Ota shahri barsha viloyat va rayon markazlari bilan avtomobil` yo`llari bilan tutashgan. Yuk tashishda suv transporti solishtirmali turda unsha katta ahamiyatga ega emas. Kemashilik Irtish va Ural daryolarida keng tarqalib, mineral qurilish materiallari, ruda, ko`mir, yog`osh, don mahsulotlari tashiladi. Manqishlaq yarim orolidagi tabiiy boyliklarni o`zlashtirishi bilan bog`liq Kaspiy dengizi orqali yuk tashish hajmi ortti.

Havo transporti. Olma-Ota shahrini respublikaning barsha shaharlari va shet davlatlarining shaharlari bilan bog`lanishtira oladi.

Quvvatli neft`-gaz truboprovodi qurilgan. Kaspiy-Qora dengiz eksportlik neftoprovodining qurilishi boshlandi. Qozog`iston axolisi va iqtisodiyoti ushun zarur bo`lgan tabiiy gaz O`zbekistondan olib kelinadi.

Iqtisodiy-geografik rayonlari. Qozog`iston Respublikasi 5 iqtisodiy-geografik rayonga bo`linadi. Janubiy, Markaziy, Sharqiy, g`arbiy va Shimoliy Qozog`iston rayonlariga bo`lnadi.

**1.Janubiy Qozog`iston** (Olma-Ota, Jambil, Qizilorda, Tudiqorg`an va Shimkent viloyatlari kiradi) respublika territoriyasining 26.5 O`ini , axolisining 38O` ini tashkil etadi. Aholisining 42 O` i shahar aholisi hisoblanadi. Rivojlangan sohalari rangli metallurgiya, fasforit qazib olish, mashina ishlab shiqarish, paxta va qand lavlagi etishtirish, sholi, bog`shilik,uzumshilik.

**2.Markaziy Qozog`iston** (Jezqazg`an va Qarag`anda viloyatlari) respublika territoriyasining 16O` ini, aholisining 11,5O` ini tashkil etadi. Aholisining 82O` i shahar axolisi hisoblanadi. Bu faqatgina Qozog`istonda emas, balki MDH dagi eng yirik ko`mir va temir rudasi basseyini hisoblanadi. Rayonda rangli metallurgiya, mashina ishlab shiqarish va ximiya sanoati yaxshi rivojlangan.

**3.Shimoliy Qozog`iston** (Kokchetog`, Qostanay, Pavlodar, Ostona viloyatlari) respublika territoriyasining 21O` ini, aholisining 27 O`ini tashkil etadi. Aholisining 49 O`i shahar aholisi hisoblanadi, milliy tarkibida ruslar ko`pshilikni tashkil etadi. Rayonda elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, don etishtirish, shorvashilik yaxshi rivojlangan.

**4.Sharqiy Qozog`iston** (Sharqiy Qozog`iston va Semey viloyatlari) respublika territoriyasining 10.5 O`ini, aholisining 11 O`ini tashkil etadi. Aholisining 57 O`i shahar aholisi hisoblanadi. Rayonda rangli metallurgiya, gidroenergetika, don etishtirish va rekreatsion resurslar yaxshi rivojlangan. Bu erda shorvashilik va dehqonshilik mahsulotlari qayta ishlanadi.

5.G`arbiy Qozog`iston (Aqtobe, g`arbiy Qozog`iston, Mang`ishlaq, Atiraw viloyatlari) respublika territoriyasining 26 O`ini, aholisining 12,5 O`ini tashkil etadi. Aholisining 58 O`i shahar aholisi hisoblanadi. Rayon respublikaning asosiy neft`-gaz markazi hisoblanadi. Rayonda ximiya sanoati, xrom va nikel` qazib olish, shorvashilik,baliqshilik yaxshi rivojlangan.

(4-soat)

Reja:

1. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.
2. Iqlimi va agroiklimlik resurslari.
3. Xo'jaligi va sanoati.
4. Iqtisodiy-geografik rayonlari

Er maydoni - 198,5 ming kv.km.

Aholisi - 4,7 mln.

Poytaxti- Bishkek

Geografik joylashgan o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Qirg'iziston - O'rta Osiyo respublikalarining biri. U Shimolda va Shimoliy g'arbda Qo'zog'iston, Janubiy-g'arbda O'zbekiston, Janubiy-sharqda - Xitoy bilan shegaralashadi. Qirg'iziston Respublikasi - tog'li davlat. Territoriyasining 30 O'dan ortig'i dengiz sathidan 3000 m balandlikda joylashgan. (Tyan-shan va Pomir-Oloy tog' sistemasi) tog'larida muzliklar ko'p, ular ko'plab daryolarning boshlanishini beradi. Shuning bilan birga bu erda Shu va Talas vodiysi, Baland tog'li yaylovlar joylashgan bo'lib 600' maydoni qishloq xo'jaligiga yaroqli hisoblanadi.

Iqlim sharoiti keskin kontinentalli, quruq, iliq yog'in-soshin miqdori Shu va Talas vodiysida 300 mmni tashkil etadi. Shu sababli bu territoriyada dehqonshilik faqat sug'ormali yo'l bilan olib boriladi. Yog'in-soshin solishtirmali turda tog' qirlarining Shimol va g'arb yonbag'irlarida ko'proq tushadi. Qish oylarida qor qatlamining kam bo'lishi mol shorvashiligida yaylovlardan unumli foydalanishga yo'l oshadi.

